

NE'MAT AMINOV QISSALARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY
MUAMMOLARNING HAJVIY TALQINI

Maftuna Matniyazova Erkaboyevna

UrDPI Pedagogika fakulteti tyutori

Har qanday davrda ham hajviyot jamiyat, ijtimoiy hayot ziddiyatlarining badiiy talqinini vujudga keltiruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Zero, badiiy talqinda ijodkor estetik ideali bilan mavjud voqelik o'zaro uyg'unlashgan holda o'ziga xos yangicha manzara hosil qiladi. Shuningdek, hajviyotdagi tanqidiy fikr, ijtimoiy illatlarni fosh etish barobarida ijodkorning estetik a'moli, shaxs qiziqish-manfaatlarini shakllantirgan holda ma'naviy-axlokiy mezonlarning barqarorlashuvini joriy g'oyaviy pafos qamroviga birlashtiradi. Shu ma'noda, hajviy talqin obraz tadrijini umumlashtirish asnosida harakat hamda holat orasidagi aloqa mustahkamligini vujudga keltiradi.

Hajviy xarakter yaratish borasida kichik epik janrlar ancha qulay, lekin, yirik janrlarda hajviy asar yaratish ancha murakkab ish. Bu murakkablikning albatta o'ziga xos omillari bor. Avvalo, hajviy asar ijodkor estetik ideali nuqtai nazaridangina emas, balki ijtimoiy ahamiyat kasb etishi lozim, ikkinchidan, asar voqealari muayyan davr mohiyatini yorqin aks ettirishi, uchinchidan, badiiy talqin etilayotgan hajviy tipga xos barcha illat va kamchiliklar aniq mantiqqa asoslanishi lozim.

O'zbek realistik adabiyotida G'.G'ulomning "Shum bola" qissasini hisobga olmaganda yirik hajviy roman va qissalar yo'q edi. Ne'mat Aminov XX asr o'zbek nasrida mavjud bo'lgan ana shu bo'shliqni to'ldirdi. U o'zbek realistik prozasini hajviy qissa-dilogiya bilan boyitdi. Birinchi qissa «Yelvizak», ikkinchisi esa «Suvarak» deb nomlangan. [1. Aminov N. Yolg'onchi farishtalar yoxud yelvizakfe'lu suvarakmijoz Bashirjon Zaynishev hayotidan qo'sh qissa. Adabiyot va san'at. 1987.]

«Yelvizak» qissasining qahramoni Bashirjon Zaynishev ustomon, katta mansabdor shaxslarning xizmatini qilib, o'rtamiyona lavozimlarda ishlab keladi. Barcha lavozimlarda ham u uzoq o'tirmaydi. Chunki o'zi rahbarlik qilgan tashkilot yoki korxonani tez fursatda "o'tirg'izadi". Ammo o'zi beminnat xizmatini qilgan «akaxonlari ko'magida u boshqa lavozimga o'tiradi. Xullas, Bashirjon Zaynishev hamma vaqt rayon miqyosidagi ko'plab tarmoqlarda boshliq bo'lib ishlagan, ularni talon-taroj qilib xarob etgan universal rahbarlardan. Asarda ana shunday hajviy tipning qismati to'la hal qilinmagan. Qissa uning madaniyat uyini boshqara olmaganligi uchun raykom byurosida muhokama qilinishi bilan yakunlanadi.

Adib keyinchalik ikkinchi qissa «Suvarakni»ni yozadi va bu qissada ham bosh qahramon Bashirjon Zaynishevning keyingi faoliyatini aks ettiradi. Adib ikkala qissani jamlab «Yolgʻonchi farishtalar» nomi ostida bir jildda chop ettiradi.

Yozuvchi N.Aminov «Yelvizak» va «Suvarak» deb nomlangan hajviy qissalarining har ikkalasida Bashirjon Zaynishevni asosiy qahramon sifatida tasvirlaydi. Albatta, qissa- dilogiyada boshqa personajlar ham bor. Ular Bashirjon atrofida birlashadi. Shu bous shoʻrolar davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi tanazzul, oqsash hamda illatlarni fosh etishda Bashirjon Zaynishev belgilovchi obraz vazifasini oʻtaydi. Jamiyatdagi yulgʻichlik, poraxoʻrlik, toʻrachilik, aldamchilik, tovlamachilik va axloqiy buzuqlik bilan halollik, toʻgʻrilik va pokdomon yashaydigan kishilar oʻrtasidagi ziddiyat asarda faqat ana shu tip bilan muloqotda namoyon boʻladi. Xuddi shu maʼnoda u insoniylik shaʼniga dogʻ tushiruvchi tiplar mohiyatini ochishda adibga katta imkoniyatlar bergan.

Oʻz qissalariga adib «Yelvizak» va «Suvarak» deb ramziy nom qoʻygan. Bunday nomlash hajviy asar mazmuniga toʻla mos boʻlib, ular asarlarning mohiyatini toʻgʻri anglashga imkon beradi. Chunki yelvizak koʻzga koʻrinmaydi, ammo kishini qattiq shamollatadi, ogʻir xastaliklarga griftor etadi. Bashirjon Zaynishev va uning hamtovoqlari, homiylari mamlakat ijtimoiy-maʼnaviy hayotininxastalantiruvchi, xavfli yelvizaklardir. Suvarak esa, yozuvchi S.Ahmad aytganidek. «qorongʻuda faol harakat» qiluvchi hasharot. Bashirjon Zaynishev va uning hamtovoqlari jamiyatning suvarakmijoz oʻgʻrilari boʻlib, S.Ahmad bu haqda shunday yozadi: «Agar oʻgʻrilarni aqlli, aqlsiz toifalarga boʻlsak, eng aqllisi mayda oʻgʻri ekani maʼlum boʻladi. Arzimagan oʻgʻirlikni prokuror nazar-pisand qilmasligini, sudya jazosi bir shapaloq «ish» uchun ilmini xor qilmasligini mayda oʻgʻri juda ham yaxshi biladi. Umuman olganda mayda oʻgʻri hamma vaqt koʻz ilgʻamaydigan, qonunning nazari tushmaydigan jinoyatlarni qiladi. [2. Said Ahmad. Yoʻqotganlarim va topganlarim. B.233]

N.Aminovning hajviy qissa-dilogiyasi asosiga oddiy kulgu qoʻzgʻatuvchi mayda-chuyda voqealar emas, balki adib qalamga olgan tarixiy davrga xos yirik maʼnaviy-axloqiy muammolar qoʻyilgan. Bulardan birinchisi-jamiyatda eʼtiqodsizlikning kuchayishi. Adib tasvirlagan XX asrning 60-80-yillari mamlakatimizda eʼtiqodsizlik kuchaygan edi. Chunki, shoʻrolar tuzumi, kommunistik mafkura xalq ongiga ateizmni, dinga qarshi kurashni shu qadar singdirib yuborganki, natijada, kishilar toʻliq xudosislarga aylanib ketmagan boʻlsalar ham, biroq ular ongidagi muqaddas tuygʻular, eʼtiqod zaiflashgan edi. Qissa- dilogiya

qahramoni Bashirjon kabi kishilar ongida pul, mol-dunyo yig'ish, qanday yo'l bilan bo'lmasin biror mansabni egallash, besh kunlik dunyoda aysh-ishrat qilib yashab qolish kayfiyati mustahkamlangan edi.

Ikkinchisi, qissa-dilogiyada kishilarda iymon sustlashgan, ular o'rtasida qadr-qimmat, samimiyat zaiflashgan, munofiqlik avj olgan davr voqealari tasvirlangan.

Darhaqiqat, badiiy talqinda haddan kuzatiladigan tashqari shaxsiyatiga xos qusurni izchil bo'rttirish kitobxonning g'ashiga tegadi. Xususan, ekspeditor Qurbonov bilan qishloqqa chiqqan Bashirjon Zaynishev xatti-harakatlari o'quvchi ensasini qotiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joiz: adib badiiy tasvir jarayonida muayyan nuqsonga yo'l qo'yadi. Negaki, ta'magir inson tabiatan xasis bo'ladi. Yozuvchi qahramon rivojlantirmaydi, balki uni tanti, dovdur kishi tarzida gavdalandiradi. Aynan talqin xakkoniyligi xarakterni yorqin tip darajasiga ko'taradi. Qissada yetakchi obraz goh qo'rqq, goh tovlamachi, goh muttaxam inson sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy namoyish personaj qiyofasi ikki muhim qirrasini - befarosat va kaltafahmligini ko'rsatadi. "Bashirjonni shaharga chaqirishmagan edi. Aslida u oblast kasalxonasida bir haftadan beri qon bosimi ko'tarilib, davolanib yotgan akaxoni Shamsi To'rayevichni borib ko'rishni xuddi shu kunga rejalashtirgan edi. Shuning uchun ham u kabinetdan shoshilib chiqdi-yu, rayon markazi tomon yo'l oldi. Chavkar arig'i ustidagi mashhur choyxona odatdagidek gavjum. Bashirjon choyxona orqali o'tib, ariqning quyisidagi «Madaniy mollar» magazini oldida mashinasini yuvib turgan shofyori yoniga borarkan, ro'paradan unga jilmayib kelayotgan hazilkash do'sti Qodirjonga kuzi tushdi. Bashirjon uni yoqtirmas edi. Chunki Qodirjon doimo qayerdagi hazillarni, bo'lmag'ur gaplarni topib, uning jig'iga tegardi». [3. Aminov N. Qahqaha.-T.: Adabiyot va san'at. 1987. –B.43.]

Adib qissalarida ma'naviy-axloqiy muammolarning hajviy talqini xususida bildirilgan fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Ne'mat Aminov XX asrning 60-80-yillari o'zbek adabiyotida hajviy qissa-dilogiyaning g'ozal namunasini yaratdi. Ushbu qissalar adibning xayoloti asosida yaratilgan badiiy to'qima mahsuli bo'lmay, ularda mamlakat hayotida o'sha davrlarda mavjud bo'lgan real voqelik, kishilar hayoti badiiy umumlashtirilgan. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, adib yagona qahramon faoliyati vositasida ko'plab kishilarning ruhiy dunyosini yorqin aks ettirishga erishdi. Bu esa qissa-dilogiyaning adabiyotimizrivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov N. Yolg'onchi farishtalar yoxud yelvizakfe'lu suvarakmijoz Bashirjon Zaynischev hayotidan qo'sh qissa. Adabiyot va san'at. 1987.
2. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. B.233
3. Aminov N. Qahqaha.-T.: Adabiyot va san'at. 1987. –B.43.